

**ZAMONAVIYLASHUV JARAYONLARIDA MADANIY
TRANSFORMATSIIYA KO'RINISHLARI VA MAFKURAVIY
IMMUNITETGA EHTIYOJ**

QUVONDIQOVA DILNOZA

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat isntituti
Madaniyat va san'at sohasi menejmenti yo'nalishi
1-kurs magistranti
dilnozaquvondiqova49@gmail.com*

Annotatsiya. *Zamonaviylashuv jarayoni to'xtovsiz davom etuvchi tarixiy zaruratdir. Bu jarayonning jamiyat madaniy hayotiga ta'siri, madaniy transformatsiya ko'rinishlari hamda globallashuv sharoitida mafkuraviy immunitetga bo'lgan ehtiyoj omillari ushbu maqolada tahlil etiladi. Rivojlangan texnologiyalar, axborot oqimi va madaniyatlararo integratsiya natijasida yuzaga kelayotgan madaniy-ijtimoiy o'zgarishlar milliy mentalitet, an'anaviy qadriyatlarga turlicha ta'sir kuchlarini ko'rsatmoqda. Maqolada mazkur o'zgarishlarning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil etilib, yoshlar ongida axborot xurujlariga nisbatan ongli ravishda qarshilik, mafkuraviy immunitetning zaruriyati, shuningdek, milliy o'zlikni asrash innovatsion rivojlanish sharoitida muhim omil sifatida yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar. *Zamonaviylashuv, madaniy transformatsiya, globallashuv, an'anaviy qadriyat, milliy o'zlik, mafkuraviy immunitet, axborot xurujlari, madaniy integratsiya, tanqidiy fikrlash, yoshlar ongi, milliy-madaniy meros*

Abstract. *The process of modernization is an ongoing historical necessity. The impact of this process on the cultural life of society, the manifestations of cultural transformation, and the factors of the need for ideological immunity in the context of globalization are analyzed in this article. Cultural and social changes arising as a result of advanced technologies, information flows, and intercultural integration have various effects on the national mentality and traditional values. The article analyzes the positive and negative aspects of these changes, and highlights the need for conscious resistance to information attacks in the minds of young people, the need for ideological immunity, and the preservation of national identity as an important factor in the context of innovative development.*

Keywords. *Modernization, cultural transformation, globalization, traditional values, national identity, ideological immunity, information attacks, cultural integration, critical thinking, youth consciousness, national-cultural heritage*

Аннотация. *Процесс модернизации — это непреходящая историческая необходимость. В данной статье анализируется влияние этого процесса на культурную жизнь общества, проявления культурной трансформации и*

факторы необходимости идеологической невосприимчивости в контексте глобализации. Культурные и социальные изменения, возникающие в результате развития передовых технологий, информационных потоков и межкультурной интеграции, по-разному влияют на национальный менталитет и традиционные ценности. В статье анализируются позитивные и негативные аспекты этих изменений, подчеркивается необходимость осознанного сопротивления информационным атакам в сознании молодежи, необходимость идеологической невосприимчивости и сохранение национальной идентичности как важный фактор в контексте инновационного развития.

Ключевые слова: модернизация, культурная трансформация, глобализация, традиционные ценности, национальная идентичность, идеологическая невосприимчивость, информационные атаки, культурная интеграция, критическое мышление, молодежное сознание, национально-культурное наследие.

Kirish.

Globalashuv jarayonining shiddatli oqimi, texnologik taraqqiyotning yuksak sur'atlari, axborot maydonining mislsiz darajada kengayishi bugungi jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqmoqda. Dunyo miqyosida yuz berayotgan bu kabi jarayonlar insoniyatning ijtimoiy hayotini o'zgartirayotgani singari, milliy madaniyat, qadriyatlar tizimi, ma'naviy-mafkuraviy muhitga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bir tomondan, iqtisodiy integratsiyalashuv, ijtimoiy va siyosiy yangilanish, ilm-fan va texnologiyalarning rivoji jamiyat taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratmoqda. Ikkinchi tomondan esa, hamkorlik, madaniy aloqalar va ochiq axborot oqimi natijasida turli yot g'oyalar, mafkuraviy ta'sirlar, ommaviy madaniyatning kirib kelishi milliy madaniyatni sinab ko'rmoqda.

Bugungi kunning asosiy talabi — o'zligini teran anglaydigan, tanqidiy fikrlay oladigan, zamonaviy yangiliklarni qabul qilar ekan, milliy-madaniy qadriyatlarini asrab-avlaydigan, yuksaltiradigan jamiyatni shakllantirishdir. Ma'naviy mustahkamlik, mafkuraviy immunitet — shiddatli global jarayonlar davrida har bir millatning eng muhim qurolidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi -ma'naviyatdir". Bu hikmat zaminida chuqur haqiqat yotadi: ma'naviy bo'shliq paydo bo'lgan jamiyatda yot g'oyalar ildiz otadi, madaniyat yemiriladi hamda milliy o'zlik zaiflashadi. Zamonaviylashuv — bu jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan yangilanishi, zamon talabiga moslashish jarayonidir. Bu jarayon ayniqsa madaniyat sohasi uchun keskin burilishlarga sabab bo'lmoqda. Negaki, madaniyat — bu asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, an'analar, ma'naviy qadriyatlar va milliy xotiraning

tayanchi sanaladi. Zamonaviylashuv sharoitida madaniy transformatsiya quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda:

1. Qadriyatlar tizimining yangilanishi. An'anaviy qadriyatlar zamonaviy qarashlar bilan uyg'unlashmoqda. Jamiyat yangi g'oyalarga qiziqmoqda.

2. Texnologik rivojlanishning madaniyatga ta'siri. Ijtimoiy tarmoqlar, internet, global media maydoni madaniyatni keng tarqatib, uni global tusga keltirmoqda.

3. Raqamli madaniyat shakllanishi. Bugungi kunda ta'lim, san'at, ijod, hatto kundalik turmush ham raqamli maydonga ko'chmoqda. Bu esa inson tafakkurini, madaniy iste'mol darajasini o'zgartirmoqda.

4. Globallashuvning madaniyatga ta'siri. Turli xalqlarning madaniyati bir-biriga singib, yangi madaniy shakllar paydo bo'lmoqda. Bu jarayon ijobiy imkoniyatlar bilan birga, milliy madaniyatga bosim ham kiritmoqda.

5. Urbanizatsiya va turmush tarzining o'zgarishi. Shahar hayoti, g'arbona madaniy ta'sirlar, yashash tarzining modernlashuvi jamiyatning madaniy qiyofasini o'zgartirmoqda.

6. Ta'lim va axborot oqimi. Yoshlar ongi, dunyoqarashi o'zgarib bormoqda. yoshlarning ochiq jamiyat tarafdori bo'lishi yanada kuchaymoqda.

Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy axborot makonida eng katta kuch — bu ma'rifat, bilim va mafkuraviy barqarorlikdir.

Asosiy qism.

Madaniy transformatsiyaning ijobiy jihatlari; Inson huquqlari, erkinliklarining kengayishi, yangi san'at va adabiyot shakllarining paydo bo'lishi, texnologiyalar orqali madaniyatga kirish imkoniyatlarining oshishi, kreativ fikrlash va intellektual salohiyatning o'sishi hamda milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi va yangi shakllar paydo bo'lishining faollashuvi. Biroq, zamonaviylashuv davrida madaniy o'zgarishlarning bazi ko'rinishlarini ijobiy tahlil eta olmaslik oqibatida ijtimoiy hayotda ko'ngilsiz hodisalar yuz bermoqda. Bunga eng avvalo, yoshlarning axborot texnologiyalaridan to'g'ri yo'sinda foylana olmayotganligi natijasida o'z qobig'iga o'ralib qolishi, turli media-o'yinlarning ta'siri ostida o'zlikni, milliy-manaviy qadr-qiyamatni toptalishi, yovuz kuchlar asiriga aylanish holatlari, shuningdek ommaviy madaniyat ning ijtimoiy hayotdagi qadriyatlar tizimida bazi yo'qotishlarga asos bo'lyotganligi jamiyatda mafkuraviy immunitetga ehtiyojni orttirmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, Sog'likni saqlash vazirligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda Madaniyat vazirligi tomonidan tegishli nazariy-amaliy chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Mafkuraviy immunitetni yuksaltirish eng avvalo oiladan-onadan boshlanadi. Negaki, oila-mahalla-jamiyat-davlat tizimida ma'rifiy islohotlarni quyi pog'onadan boshlash bu - ulug' maqsad yo'lida-yarim g'alabadir. Bevosita, yuksak ilm-marifatga ega onadan sog'lom bola dunyoga keladi. Ona vujudidan boshlanadi farzand

tarbiyasi, alladan singdiriladi. Oilaga, vatanga mehr-muhabbat tuyg'usi, ezgu niyatlar - allada aks etadi. Shu boisdan, Prezidentimiz tashabbusi bilan, Yangi O'zbekiston bunyod etish yo'lida ayollar mavzusiga alohida to'xtalib, ularni ilm-marifatga chaqirish, ta'limda bir qancha qulayliklar yaratish hamda ularning haq-huquqlarini yanada himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga tatbiq etish ko'zda tutildi.(69-maqсад,2022-2026). Birgina misol tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida”(2022-yil 15-iyundagi PQ- 279-son qarori 3-bandi) gi qaroriga muvofiq, yurtimizda magistratura bosqichiga o'qishga qabul qilingan ayollarning to'lov-kontrakt summalari davlat hisobidan qoplab berilishini keltirib o'tish joizdir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (03.05.2019-yildagi PQ-4307-son) qarori asosida joylarda oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamda mehnat jamoalarida ijtimoiy muhitni o'rganishga qaratilgan faoliyat “mahalla-tuman-viloyat-respublika” prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma'naviy muhit xaritasini shakllantirish hamda bu jarayonga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish belgilandi. “Jaholatga qarshi ma'rifat” g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlari tashkil etish kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish belgilandi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta va oliy ta'limda ham xorijiy tajribalar asosida keng yangi imkoniyatlar va zamonaviy texnologilar bilan ta'minlash, kadrlar tizimini isloh etish orqali yuksak salohiyatni oshirish, ta'limga keng qamrovli jalb etish, ma'naviy-ma'rifiy muhitni yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga tatbiq etilib kelinmoqda.

Yurtimiz o'tmishdan o'zining boy tarixi, milliy-madaniy boyliklari, yuksak qadriyatlarini, an'ana-urf odatlari, jonkuyar ulamolar-u fuzalolari hamda so'nmas istedodga ega buyuk ma'rifatparlar ijodiy merosi bilan dunyo globalizm asrida yuqori pog'onalarni zabt etib kelmoqda. xalqimiz o'ziga xos san'ati, qadimiy-me'moriy durdonalari, milliy liboslari, urf-odat hamda qadriyatlarini saqlab qolish, jahonda keng yoyish va rivojlantirib kelgusi avlodga yetkazish yo'lida turli xalqaro festivallar o'tkazilib kelinmoqda. jumladan, “Sharq taronalari”, “Xalqaro baxshichilik” festivali, “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali singari milliy-madaniy qadriyatlarni tarannum etuvchi amaliy ishlar tashkil etilib kelinmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad rivojlangan davrda raqobatbardosh davlatlardan o'zib ketish, dunyo hamjamiyatida o'z milliy- madaniy qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimizni keng targ'ib etish, turli qardosh xalqlar bilan madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish hamda jamiyatga o'zligini yanada teran anglab, vujudida vatanga, tarixga nisbatan faxr, bugunga imkoniyat va ertangi kuniga buyuk ishonchni uyg'otishdir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, qilinayotgan barcha ishlar mazmunidan ko'zlangan maqsad-zamonaviylashuv sharoitida, jamiyatda benihoya kuchli mafkuraviy immunitetni

yaratish asnosida jahon axborot tarmoqlaridagi ba'zi axborot xurujlari va yot g'oya hamda media o'yinlari oqimidan saqlanish, ularni oqilona tahlil etuvchi yuksak ma'rifatli yosh avlodni tarbiyalashdir. Qadim tarihdan o'zining so'nmas boy madaniy, iqtisodiy, yuksak milliy-ma'naviy merosiga ega yurtimizda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda ilm-fan, adabiyot, urf-odatlar, an'analar, dinimiz, shuningdek OAV, Kutubxona, Milliy-Madaniy markazlar, Teatr, Muzey hamda Ta'lim tizimining o'rni katta.

Vaholanki, Jamiyatga sog'lom mafkuraga ega komil shaxsni tarbiyalab beruvchi poydevor maskan, bu-oila hisoblanadi. Oilada-insoniy qadriyatlarga hurmat, vatanga sadoqat, oliyjanoblik, ahloq hamda ma'rifat singdirilsa, har bitta oilada shaxsiy kutubxona, muzeylar yaratilish orqali farzandda yoshlikdan kitobga muhabbat, o'tmish tarixga nisbatan qiziqishni oshishiga, teran fikr, metin iroda va keng dunyoqarash shakllanishiga xizmat qiladi. Bu murakkab jarayonni to'g'ri tashkil etishda ota-onalar mas'uldir. Mustaqil, rivojlanayotgan yurt farzandi sifatida shuni ayta olamanki, o'zligimizni anglab, tarixga nazar solib, bugunimizda yuksak ishonch va iftixor tuyg'usi bilan muttasil harakatdan to'xtamasak, hech qaysi to'siq bizni yenga olmaydi, kelajakka yuksak ma'rifatimiz bilan erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. – 464 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008. – 176 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: “O'zbekiston”, 1997. – 326 b.
4. Quronov M. Milliy tarbiya va mafkuraviy immunitet masalalari. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2019. – 224 b.
5. Jo'rayev N. Globallashuv sharoitida milliy mafkura. – Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2017. – 192 b.
6. Abdullaev A. Madaniyatshunoslik asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2018. – 256 b.
7. Nazarov Q. Madaniyatshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2015. – 304 b.
8. Tursunov S., Xudoyberdiyev A. Globallashuv va milliy madaniyat. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 210 b.
9. Mamatov S. Yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari. // *Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari*. – Toshkent, 2022. – №3. – B. 45–50.
10. Xoliqov A. Globallashuv jarayonlarida madaniy transformatsiya masalalari. // *Falsafa va huquq*. – Toshkent, 2021. – №4. – B. 62–67.